

Xalqimiz kelajagi uchun uyda qoling!

Men qadimgi, aynan Amir Temur va Temuriylar davri qo'lyozmalarini o'rgangan mutaxassis sifatida shuni ta'kidlamochimanki, o'sha vaqtlarda juda ko'p bizning va qo'shni davlatlar boshidan kechgan qiyinchiliklar, turli yuqumli kasalliklarning tarqalishi (vabo va boshqalar) tufayli butun bir shaharda bironta odam ham tirik qolmagan. Amir Temur o'z askarlarini yuqumli kasalliklardan asrash uchun bu shahardan ancha yiroq va mashaqqatli yo'llar bilan olib o'tgan.

Ulug' Vatan urushidan keyingi dastlabki yillari (non olish uchun 5-6 yoshli bola bo'lib turib) kechasi bilan navbatda turib har bir odamni qo'liga bir buxanka non berilganligini juda ko'p eslayapman va shu kunlarda xalqimiz boshiga tushgan kutilmagan og'ir vaziyatni yengish uchun ba'zilarimiz Davlatimiz Rahbari olib borilayotgan sa'y-harakatlarga, shifokorlarimiz, posbonlarimizga yordam berish o'rniga xalaqit berayotganini (to'y, yig'in, va boshqa marosimlar) haqida eshitib hayron bo'layapmiz.

Shu og'ir vaziyatdan chiqib ketish uchun hurmatli Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev xalqdan kasallik tarqab ketmasligi uchun faqatgina vaqtincha uyda o'tirishni so'ramoqdalar.

Qutlug' Vatan urushi paytida Leningrad shahri "blokadada" bo'lgan va har bir odamga kun bo'yi yeyishlari uchun bir kichkina bo'lak non tekkan. Shu vaziyatda ham odamlar chidagan. Hozir esa davlatimiz tomonidan supermarketlar, bozorlar ilgaridek oziq-ovqat bilan ta'minlanib turibdi, stipendiyalar, oylik va pensiyalar o'z vaqtida berilayapti, tibbiyot xodimlari va dorixonalar nuqsonsiz ishlab turibdi. Xalqdan faqatgina uyda qolish so'ralyapti.

Nahotki boshidan shuncha og'ir kunlarni kechib farovon hayotga erishgan o'zbek xalqi hozirgi vaziyatni yengib o'tolmaydi?

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan qator muhim farmonlarga imzo chekildi, xalqqa bir qancha imtiyozlar yaratildi, koronavirus kasalligiga chalingan insonlarga hamma tibbiy himoya vositalar jalb etildi, chet eldan (Rossiya, Yaponiya, Xitoy, Germaniya va b.) kuchli tibbiyot mutaxassislari taklif qilindi.

Bu harakatlarning barchasi pandemiya tufayli xalqimiz orasida kasallik tarqalishi va yo'qotishlar bo'lmasligi uchun qilinyapti.

Aziz vatandoshlar, bu og'ir kunlarda xalqimizning kelajagi uchun qo'lingizdan kelganicha yordam berishingizni va uyda qolishingizni so'rayman!

Dilorom Yusupova, O'zR FA akademigi.